

Yangi davrda Lotin Amerikasi davlatlari

Xo'jamqulov Azizbek

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi davrda Lotin Amerikasi davlatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Karib havzasasi, Charlz burni Janubiy Amerikada va Shimoliy Amerikaning janubiy qismida joylashgan davlatlar, shuningdek, Karib dengizidagi orollar Lotin Amerikasi mamlakatlari deb ataladi. Yevropaliklar bosqinidan keyin mahalliy aholi lotin tilidan kelib chiqqan ispan, portugal, fransuz tillarida so'zlashgani uchun berilgan. Hozirgi kunda bu hudud «Lotin Amerikasi va Karib havzasasi mamlakatlari» deb yuritiladi. Yerning g'arbiy yarimsharida joylashgan qit'a, G'arbiy yarimsharning shimoliy qismidagi materik, Amerika qit'asining shimoliy yarmi. Shimoldan Shimoliy Muz okeani chuqur kirib borgan Gudzon qo'ltig'i bilan, sharq va janubi-sharqdan Atlantika okeani, g'arbdan Tinch okeani va ularning qo'ltiqlari bilan o'ralgan. Chekka nuqtalari: shimoldada Merchison burni ($71^{\circ}50'$ shimoliy kenglik.), g'arbda Shahzoda Wales burni (168° g'arbiy uzunlik.), sharqda Sent Charlz burni ($55^{\circ}40'$ g'arbiy uzunlik.), janubda Panama bo'yni orqali Janubiy Amerika materigi bilan tutash. Shimoliy Amerikaga Markaziy Amerikani ham kiritadilar. Maydoni 20,36 million km², orollari bilan 24,25 million km². Yirik orollari: Grenlandiya, Kanada Arktika arxipelagi, VestIndiya va materikning g'arbiy qirg'oqlari yaqinidagi orollar: Aleut, Qirolichcha Charlotte, Vankuver va boshqalar Yirik yarim orollari: shimoldada Butiya, Melvill, sharqsa Labrador, Florida, Yukatan, g'arbda Kaliforniya, Alyaska, Syuard. G'arbiy yarimsharning janubiy qismidagi materik, Amerika qit'asining janubiy yarmi. Sharqdan Atlantika okeani, g'arbdan Tinch okeani o'rabi turadi. Shimolida Panama bo'yni orqali Shimoliy Amerika bilan tutash, janubida Dreyk bo'g'ozni orqali Antarktidadan ajralib turadi. Materikning eng uzun joyi 7150 km, eng keng joyi 5100 km. Janubiy Amerika tarkibiga Shamolsiz orollar, Trinidad orol, Folklend, Olovli Yer va Chili arxipelaglari, Galapagos orollari kiradi. Maydoni 17,85 million km², orollar bilan birga hisoblaganda esa 18,28 million km². Aholisi 420 millionni tashkil qiladi aholi soni bo'yicha dunyoda beshinchi o'rinda (Osiyo, Afrika, Yevropa

va Shimoliy Amerikadan keyin) turadi. Birinchi jahon urushi Lotin Amerikasi mamlakatlarida kapitalizm rivojlanishi jarayonini yanada jadallashtirdi. Yevropadan keladigan tovarlar va kapital oqimi kamaydi. Jahon bozorida mintaqada ishlab chiqarilgan oziqovqat va xom ashyo mahsulotlarining narxi va Kuba shakarining narxi 11 marta oshdi. kapitalning jamg‘arildi mahalliy ishlab chiqarishning rivojlandi iqtisod nisbatan barqaror sur’atlar bilan o’sishdi Agroeksport, tog‘-kon va yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlandi. 1920-yillar oxiriga kelib ekstensiv asosda iqtisodni samarali rivojlantirishning imkoniyatlari tugadi. 1920-yillarda Lotin Amerikasi mamlakatlari siyosiy jihatdan faqat nomigagina respublika edi. Aholining katta, ayniqsa, yirik iqtisodiy va madaniy markazlardan uzoqda joylashgan, ko‘pchilik qismi savodsiz yoki kamsavod bo‘lib, saylovlarda qatnashmasdi va demokratik tuzum uchun ijtimoiy asos bo‘la olmasdi. 1920-yillardagi liberal islohotchilik Lotin Amerikasida mahalliy burjuaziyaning, aholining keng qatlami manfaatlarini aks ettirdi. Argentinada Ipolito Irigoyen hukumatining faoliyati bu davr liberal-islohotchilik siyosatiga yorqin misoldir. milliy sanoatning rivojlanishini rag‘batlantirdi davlat neft sanoatini shakllantirdi Qishloqda kuchli fermerlar qatlami shakllandi ijarachilarining ahvoli yaxshilandi Irigoyen 8 soatlik ish kuni to‘g‘risida qonun qabuldi. Ish haqi oshirildi, ishchi va xizmatchilarining katta qismi uchun pensiya belgilandi, o‘smirlar va ayollar mehnati cheklandi. 1929 – 1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Lotin Amerikasi mamlakatlarida qaror topgan ijtimoiyiqtisodiy tizimlarning salbiy tomonlarini, iqtisodning tashqi bozorga haddan tashqari qaramligining og‘ir oqibatlarini ochib tashladи. Inqiroz yillari Lotin Amerikasi mamlakatlarining an‘anaviy mahsulotlariga jahon bozorida talab kamayib ketdi. Minglab plantatsiyalar, zavod va fabrikalar to‘xtab qoldi. O‘z xaridorini topmagan millionlab tonna qahva, g‘alla va boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari yo‘q qilindi. Ko‘plab ishlab chiqaruvchilar xonavayron bo‘ldi. Yuz minglab kishilar ishsiz qoldi. Mehnatkashlar, aholi o‘rtा qatlaming umumiylashdi. Iqtisodiy inqiroz mintaqadagi hukmron rejimlarni jamiyatdagi tayanchidan mahrum qildi ijtimoiy beqarorlikning o‘sishiga, jiddiy siyosiy o‘zgarish larga olib keldi. Argentinada 1930-yili harbiy to‘ntarish amalga oshirildi va Ipolito Irigoyenning ikkinchi hukumati ag‘darib tashlandi, hokimiyatga konservator guruhlari qaytdi. Braziliyada aksincha, inqiroz bu yerda hukmronlik qilayotgan «qahva oligarxiyasi»ning pozitsiyasini susaytirdi. 1930-yilgi burjua inqilobi oligarxiya rejimi ag‘darib tashladи. Kolumbiyada konservativ oligarxiya rejimi o‘rniga liberal-islohotchilar keldi. Chili va Kubada ommaviy inqilobiy chiqishlar natijasida inqirozdan sal oldin hokimiyatga kelgan diktatorlik rejimlari ag‘darib tashlandi. 1930-yillarda Lotin Amerikasining siyosiy

xaritasida ko‘pincha birbirini almashtirgan turli siyosiy rejimlarhukmronlik qilishda davom etdilar diktatorlik konstitutsion ijtimoiy mazmuni bo‘yicha konservativ liberalislohotchi millatchi so‘l kuchlar. 1930-yillarda Lotin Amerikasining siyosiy xaritasida ko‘pincha birbirini almashtirgan turli siyosiy rejimlarhukmronlik qilishda davom etdilar diktatorlik konstitutsion ijtimoiy mazmuni bo‘yicha konservativ liberalislohotchi millatchi so‘l kuchlar. Lotin Amerikasida kapitalistik taraqqiyot yo‘lida ancha oldinlab ketgan Argentina Meksika Braziliya Chili Urugvay 1930-yillarda Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy siyosatida yuz bergen o‘zgarishlar mahalliy ishlab chiqarishning o‘sishi va milliy kapitalning kuchayishiga olib keldi. Juhon urushlari oralig‘ida Lotin Amerikasi davlatlari uchun muhim muammoularning AQSH bilan munosabatlari bo‘ldi. Birinchi jahon urushi yillarida Lotin Amerikasiga Yevropa davlatlari e’tiborining susayishidan foydalangan AQSH kapitali Markaziy va Janubiy Amerikaga kirib keldi. 1933-yili AQSH prezidenti Franklin Ruzvelt o‘z hukumatining Lotin Amerikasi davlatlariga intervensiya uyushtirmasligini va boshqa ko‘rinishda bu davlatlarning ichki ishlariga aralashmasligini hamda ular bilan «yaxshi qo‘shnichilik» munosabatlari o‘rnatishini e’lon qildi.

Foydanilgan Adabiyotlar ro’yxati

Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУХОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).

Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG’LIQ IJTIMOIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.

Mamarajabov, B. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.